

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GENDER NUTQIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Tokhtamisheva Sevinch Kamilovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi

E-mail: kamilovnaa19@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida gender nutqining shakllanishi hamda uning lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqotda erkak va ayol nutqida til biliklarining tanlanishi, ifoda uslubi va muloqot jarayonidagi farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqqa ta'sir etuvchi ijtimoiy va madaniy omillar ham yoritiladi. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil metodi asosida ingliz va o'zbek tillaridagi gender nutq xususiyatlari bo'yicha nazariy xuloasalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: gender, nutq, lingvistik tahlil, muloqot uslubi, ijtimoiy va madaniy omillar.

Abstract: This article explores gendered speech features in English and Uzbek languages from a comparative linguistic perspective. It analyzes lexical, discourse, and pragmatic differences between male and female speech and considers the influence of sociocultural factors on language use. Based on comparative analysis, the study provides theoretical conclusions and practical recommendations on gendered-related speech variation.

Kalit so'zlar: gendered speech, sociolinguistics, pragmatics, comparative linguistics, communicative behavior.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности гендерной речи в английском и узбекском языках с точки зрения лингвопрагматики, социолингвистики и культурного подхода. В исследовании рассматриваются фонетические, лексические, грамматические и прагматические различия в речи мужчин и женщин. Результаты показывают, что в английском языке исследования гендерной речи более развиты, тогда как в узбекском языке на формирование речи значительное влияние оказывают национальные традиции и социальные роли.

Ключевые слова: гендер, речь, лингвистический анализ, стиль общения, социальные и культурные факторы.

Kirish. Til jamiyatning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ tizimini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. U nafaqat fikr almashish, balki jamiyatdagi ijtimoiy rollar, qadriyatlar va stereotiplarni ham aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, gender omili til tizimida muhim lingvistik va sotsial hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslikda gender nutq masalasi sotsiolingvistika va lingvopragmatika doirasida keng o'rganilmoqda. Erkak va ayol nutqida til birliklarining tanlanishi, ifoda uslubi hamda kommunikativ strategiyalar o'rtasidagi farqlar turli tillarda o'ziga xos tarzda shakllanadi.

Ingliz tilshunosligida R. Lakoff (1975), Cameron (2005)⁴¹ kabi olimlar tomonidan gender nutqini o'rganib, ayollar nutqi erkaklarnikiga nisbatan yumshoqroq va ehtiyotkor ifoda vositalari bilan ajralib turishini ta'kidlaydi.⁴² O'zbek tilshunosligida

⁴¹ Cameron, D. (2005). Gender and Language. Cambridge University Press.

⁴² Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place. Oxford University Press.

esa Nodir Mahmudov nutq madaniyati va tilning ijtimoiy tabiati masalalarini yoritib bergan.⁴³ Dilorom Rasulova o'z tadqiqotlarida til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan.⁴⁴ Shuningdek, Gulnora Abdurahmonova ishlarida kommunikativ xulq va nutqning ijtimoiy-madaniy omillarga bog'liqligi masalalari ko'rib chiqiladi.⁴⁵ Shernazarova (2018) kommunikativ til o'qitish yondashuvi insonlarni nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini qayd etadi. Ushbu tadqiqotlar o'zbek tilida genderga xos nutqiy xususiyatlar asosan milliy madaniyat va ijtimoiy me'yorlar bilan belgilanishini ko'rsatadi.⁴⁶ Ingliz va O'zbek tillarida gender nutq xususiyatlarini qiyosiy o'rganish lingvomadaniy farqlarni aniqlash, shuningdek, nutqiy xulqning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global tilshunoslikda rivojlangan ingliz tili tajribasi va O'zbek tilining milliy-madaniy asoslari o'rtasidagi farqlar tadqiqotning ilmiy qiymatini oshiradi. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida gender nutq xususiyatlarini lingvopragmatik, sotsiolingvistik va madaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, erkak va ayol nutqidagi fonetik, leksik va pragmatik farqlarni aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda gender nutqining lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta lingvistik va sotsiolingvistik metodlar integratsiyalashgan holda ishlatildi.

1. Kuzatuv metod. turli kommunikativ vaziyatlarda erkak va ayol nutqining tabiiy namunalari o'rganildi.

2. Struktur-semantik tahlil metod. nutq birliklarining ma'no xususiyatlari va ularning gap tuzilishidagi o'rni tahlil qilindi. Bu usul genderga xos lingvistik farqlarni chuqurroq ochib berdi.

3. Pragmatik yondashuv. Nutqning kommunikativ maqsadi, suhbat ishtirokchilarining ijtimoiy roli va vaziyatga moslashuvi o'rganildi.

4. Qiyosiy tahlil elementi. ingliz va o'zbek tilidagi nutqiy xususiyatlar solishtirilib, ularning madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi yoritildi.

Tadqiqot materiallari: Ushbu tadqiqotda turli kommunikativ manbalardan olingan tabiiy nutq namunalari tahlil qilindi. Ingliz tilidagi materiallar sifatida ommaviy axborot vositalarida uchraydigan intervyular, ta'limiy TED chiqishlari hamda badiiy filmlardagi dialoglar tanlab olindi.

O'zbek tilidagi materiallar esa kundalik muloqot jarayonidagi nutqiy vaziyatlar, ta'lim muassasalaridagi og'zaki nutq namunalari hamda ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlardan iborat bo'ldi. Ushbu materiallar real kommunikativ muhitda shakllangan nutq birliklarini tahlil qilish va ularni qiyosiy o'rganish imkonini berdi.

Natijalar Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tillarida genderga xos nutq xususiyatlari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Qo'llanilgan kuzatuv, struktur-semantik, pragmatik hamda qiyosiy metodlar asosida olingan natijalar gender omilining nutq tizimida muhim o'rin egallashini ko'rsatdi. Tahlil natijalari tilning leksik,

⁴³ Mahmudov, N. (2020). O'zbek nutq madaniyati va gender aspektlar. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.

⁴⁴ Rasulova, D. N. (2018). Gender lingvistikasining asoslari. Toshkent.

⁴⁵ Rasulova, D. N. (2018). Gender lingvistikasining asoslari. Toshkent.

⁴⁶ Shernazarova, Hayothon Marufjonovna. "Achieving communicative language learning effectively." Проблемы и перспективы развития России: Молодежный взгляд в будущее. 2018.

grammatik, pragmatik va diskurs darajalarida genderga xos farqlar mavjudligini tasdiqladi.

1. Kuzatuv metodi asosida olingan empirik natijalar erkak va ayol nutqi o'rtasida sezilarli kommunikativ va funksional tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ayollar nutqida emotsional-ekspressivlik, muloyimlik va suhbatdoshga yo'naltirilgan kommunikativ strategiyalar ustunlik qiladi. Bunda ayollar nutqi ko'proq interaktivlik, dialogni davom ettirish va ijtimoiy-psixologik muvozanatni saqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, erkaklar nutqida informativlik, aniqlik va lakoniklik kabi xususiyatlar ustun bo'lib, fikrni minimal lingvistik vositalar orqali maksimal darajada aniq ifodalashga intilish kuzatiladi. Erkaklar nutqida kommunikativ jarayon ko'proq mazmuniy axborotni yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, emotsional komponentlar nisbatan kamroq namoyon bo'ladi. Mazkur kuzatishlar gender omilining nutqiy xulq shakllanishida muhim sotsiolingvistik determinant sifatida ishtirok etishini ko'rsatadi. Ya'ni, erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlar nafaqat lingvistik vositalar darajasida, balki kommunikativ strategiya va diskurs tashkil etilishida ham yaqqol aks etadi.

2. Struktur-semantik tahlil natijalari nutq birliklarining ma'no yuklamasi va ularning funksional xususiyatlari gender omiliga bog'liq holda sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Xususan, ayollar nutqida baholovchi, ekspressiv hamda subyektiv munosabatni ifodalovchi leksik birliklarning keng qo'llanilishi aniqlandi. Bunday birliklar nutqning emotsional-ekspressiv rang-barangligini ta'minlab, kommunikativ jarayonda suhbatdosh bilan psixologik yaqinlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Erkaklar nutqida esa, aksincha, semantik jihatdan neytral, informativ va mazmuniy aniqlikka yo'naltirilgan birliklar ustunlik qilishi kuzatildi. Bu holat erkaklar nutqining ko'proq faktual axborotni yetkazishga qaratilganligini ko'rsatadi. Ingliz tilida mazkur xususiyatlar sifat darajalari va intensifikatorlar orqali ifodalansa, o'zbek tilida esa ravishlar, yuklamalar va turli qo'shimcha vositalar orqali namoyon bo'ladi. Shu tariqa, struktur-semantik tahlil gender nutqining mazmuniy tashkil etilishida muhim differensial omil ekanligini tasdiqlaydi.

3. Pragmatik tahlil natijalari gender nutqining kommunikativ maqsadlari va strategiyalari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayollar nutqi ko'proq interaktivlik, hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda suhbatdoshga nisbatan e'tibor, qo'llab-quvvatlash va kommunikativ muvozanatni saqlash muhim o'rin egallaydi. Ayollar nutqida muloyimlik, ehtiyotkorlik va diplomatik ifoda vositalarining keng qo'llanilishi ham aynan shu kommunikativ maqsadlar bilan izohlanadi. Erkaklar nutqida esa pragmatik jihatdan axborotni uzatish, fikrni aniq va qisqa shaklda bayon etish ustuvor hisoblanadi. Bunda kommunikativ jarayon ko'proq monologik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy-emotsional komponentlar nisbatan kamroq namoyon bo'ladi. Mazkur natijalar genderga xos kommunikativ xulq va nutq strategiyalarining mavjudligini hamda ularning ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

4. Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarida gender nutqining umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda ham ayollar nutqi emotsional-ekspressivlik, baholovchanlik va kommunikativ moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, erkaklar nutqi esa nisbatan neytral, faktual va maqsadga yo'naltirilgan xarakterga ega. Biroq, tillar kesimida muhim tafovutlar ham kuzatildi. Ingliz tilida genderga xos nutqiy farqlar ko'proq individual nutq strategiyalari

va shaxsiy kommunikativ uslub bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida esa bu farqlar ijtimoiy me'yorlar, hurmat kategoriyasi, an'anaviy qadriyatlar va kommunikativ etiketa bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, o'zbek nutqida ijtimoiy ierarxiya va hurmat ifodasi genderga xos nutqiy xususiyatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari gender nutqining lingvistik va sotsiomadaniy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, ushbu natijalar genderga oid nutqiy xususiyatlarni madaniyatlararo kommunikatsiya, nutq madaniyati hamda til siyosati doirasida tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama O'tkazilgan tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida gender nutqi farqlari nafaqat lingvistik vositalar, balki kengroq ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanayotganini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, nutqdagi gender tafovutlarini izohlashda jamiyatdagi gender rollari, kommunikativ me'yorlar va madaniy qadriyatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tiliga xos kommunikativ muhitda gender nutqi ko'proq individual nutq strategiyalari va psixologik xususiyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Bu til doirasida ayol va erkak nutqi o'rtasidagi farqlar nisbatan yumshoq bo'lib, ular ko'proq uslubiy va pragmatik darajada namoyon bo'ladi. Bunda shaxsning individual kommunikativ tanlovi muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida esa gender nutqining shakllanishida ijtimoiy me'yorlar, hurmat kategoriyasi va an'anaviy qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega. Ayollar nutqi ko'proq muloyimlik, ehtiyotkorlik va ijtimoiy muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, erkaklar nutqi qat'iylik, aniqlik va yakuniy qarorga intilish bilan xarakterlanadi. Bu esa o'zbek jamiyatida mavjud bo'lgan ijtimoiy rollar va kommunikativ etiketa bilan izohlanadi.

Shuningdek, diskurs darajasidagi tahlillar ayollar nutqi ko'proq dialogik va hamkorlikka yo'naltirilganligini, erkaklar nutqi esa nisbatan monologik va dominant xarakter kasb etishini ko'rsatdi. Bu farqlar muloqot jarayonida ishtirokchilarning kommunikativ strategiyalarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

O'xshash jihatlar sifatida har ikki tilda ham ayollar nutqida emotsionallik va ekspressivlik elementlari, erkaklar nutqida esa aniqlik va informativlik ustunligi kuzatiladi. Biroq farqli jihatlar ularning shakllanish manbai bilan bog'liq: ingliz tilida bu ko'proq individual-psixologik omillar bilan belgilanadi, o'zbek tilida esa ijtimoiy-madaniy me'yorlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Umuman olganda, mazkur muhokama natijalari gender nutqining murakkab va ko'p qirrali hodisa ekanligini, uning shakllanishi til tizimi bilan bir qatorda jamiyatning madaniy va ijtimoiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Xulosa Ushbu ilmiy ishda ingliz va o'zbek tillarida gender nutqining o'ziga xos lingvistik va ijtimoiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ayollar nutqi ko'proq muloyimlik, emotsionallik va hamkorlikka yo'naltirilgan bo'lsa, erkaklar nutqi qisqalik, aniqlik va qat'iylik bilan ajralib turadi.

Shuningdek, ushbu farqlar har ikki tilda mavjud bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lish darajasi madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liq holda turlicha ifodalanadi. Ingliz tilida gender nutqi farqlari nisbatan yumshoqroq ko'rinishda bo'lsa, o'zbek tilida ular an'anaviy qadriyatlar ta'sirida kuchliroq seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff, R. (1975). *Language and Woman's Place*. Oxford University Press.
2. Cameron, D. (2005). *Gender and Language*. Cambridge University Press.
3. Rasulova, D. N. (2018). *Gender lingvistikasining asoslari*. Toshkent.
4. Mahmudov, N. (2020). O'zbek nutq madaniyati va gender aspektlar. O'zbek tili va adabiyoti jurnali.
5. Abdurahmonova, G. (2021). Gender va til munosabati. *Tilshunoslik izlanishlari*, 4(1), 55-6
6. Shernazarova, Hayothon Marufjonovna. "Achieving communicative language learning effectively." *Проблемы и перспективы развития России: Молодежный взгляд в будущее*. 2018.